INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://sr-journals.org/index.php/ITSE

OAV diskursida paremiologik birliklar

S.S.Saydullayeva,
Navoiy davlat universiteti dotsenti, f.f.f.d., (PhD)
s.serajiddinovna@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ommaviy axborot vositalari (OAV) diskursida paremiologik birliklarning qo‘llanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Ingliz, o‘zbek va turk tillari materiallari asosida maqollar va hikmatli iboralarning media matnlardagi pragmatik, kommunikativ hamda lingvomadaniy vazifalari yoritiladi. Tadqiqotda paremiologik birliklarning axborotni ta’sirchan, obrazli va esda qolarli shaklda yetkazishdagi o‘rni, auditoriyaga nutqiy ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlari hamda milliy-madaniy qadriyatlarni ifodalashdagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, OAV diskursida maqollarning ishontirish, ogohlantirish, baholash va tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish kabi pragmatik funksiyalari qiyosiy tahlil asosida tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: paremiologik birliklar, OAV diskursi, maqol, aforizm, pragmatika, kommunikativ funksiya, lingvomadaniyat, media diskurs, milliy qadriyatlar, nutqiy ta’sir.

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности функционирования паремиологических единиц в дискурсе средств массовой информации. На материале английского, узбекского и турецкого языков анализируются прагматические, коммуникативные и лингвокультурологические функции пословиц и афористических выражений в медиатекстах. Особое внимание уделяется роли паремиологических единиц в передаче информации в образной, выразительной и запоминающейся форме, их воздействующему потенциалу на аудиторию, а также отражению национально-культурных ценностей. Кроме того, на основе сопоставительного анализа исследуются прагматические функции пословиц в медиадискурсе, такие как убеждение, предупреждение, оценка и воспитательное воздействие.

Ключевые слова: паремиологические единицы, медиадискурс, пословица, афоризм, прагматика, коммуникативная функция, лингвокультура, средства массовой информации, национальные ценности, речевое воздействие.

Abstract. This article examines the functioning of paremiological units in mass media discourse. Based on English, Uzbek, and Turkish language materials, the study analyzes the pragmatic, communicative, and linguocultural functions of proverbs and aphoristic expressions in media texts. Particular attention is paid to the role of paremiological units in conveying information in an expressive, memorable, and culturally meaningful way, as well as their persuasive impact on audiences. The article also highlights the significance of proverbs in representing national values and cultural identity. Through a comparative approach, the pragmatic functions of paremiological units in media discourse, including persuasion, warning, evaluation, and educational influence, are investigated.

Keywords: paremiological units, media discourse, proverb, aphorism, pragmatics, communicative function, linguoculture, mass media, national values, persuasive impact.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ommaviy axborot vositalari (OAV) diskursi, uning pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlari, shuningdek, paremiologik birliklarning kommunikativ jarayondagi o‘rni tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur masala xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli aspektlarda tadqiq etilgan.

OAV diskursining nazariy asoslari va uning nutqiy ta’sir mexanizmlari M.R. Jeltuxinaning[1] ilmiy ishlarida keng yoritilgan. Olim media matnlarida tropologik vositalarning suggestiv

[1] Желтухина М. Р. Тропологическая суггестивность масс-медиального дискурса: о проблеме речевого воздействия тропов в языке СМИ: монография. – Москва: Ин-т языкознания РАН; Волгоград: Изд-во ВФ МУПК, 2003. – 656 с.

xususiyatlarini tadqiq qilib, ommaviy kommunikatsiyada til vositalarining auditoriya ongiga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlarini ochib bergan. Uning fikricha, media diskurs nafaqat axborot yetkazish, balki adresatning dunyoqarashi va baholash mezonlarini shakllantirish vazifasini ham bajaradi.

M.E. Frolov[2] media diskursni murakkab semiosistema sifatida talqin qilib, televizion axborot-tahliliy dasturlar tilining pragmatik va kommunikativ xususiyatlarini o‘rgangan. Tadqiqotda verbal va noverbal vositalarning o‘zaro munosabati hamda ularning auditoriyaga ta’siri tahlil qilingan.

R. Harris[3] ommaviy kommunikatsiya psixologiyasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida OAVning inson tafakkuri va ijtimoiy ongga uzoq muddatli ta’sirini asoslab bergan. Olimning ta’kidlashicha, ommaviy axborot vositalarida muntazam takrorlanadigan mazmun va obrazlar auditoriyaning voqelik haqidagi tasavvurlarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligida OAV tili va nutq madaniyati masalalari D.A. Teshaboyeva[4] tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Olim O‘zbekiston OAVlari tilining nutq madaniyati aspektlarini tahlil qilib, media matnlarda kommunikativ maqsad va uslubiy vositalarning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatib bergan.

Gazeta va publitsistik matnlar tilining lingvistik xususiyatlari A. Abdusaidov[5], I. Azimova[6], N. Qodirov[7], Sh. Abduraimova[8] va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, A. Abdusaidov gazeta janrlarining til xususiyatlarini, I. Azimova esa gazeta matnlarining mazmuniy persepsiyasini psixolingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilgan.

Paremiologik birliklarning lingvistik, pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlari bo‘yicha V.P. Jukov[9], G.L. Permyakov[10], N.F. Alefirenko[11], V.M. Mokienko[12] kabi olimlarning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega. Ular maqollarni xalq tafakkuri, madaniy xotira va milliy qadriyatlarning verbal ifodasi sifatida baholaydilar. Zamonaviy lingvokulturologik tadqiqotlarda paremiologik birliklar milliy mentalitet va konseptual dunyo manzarasini aks ettiruvchi vosita sifatida talqin qilinadi. Biroq ingliz, o‘zbek va turk tillaridagi OAV diskursida paremiologik birliklarning qiyosiy-pragmatik xususiyatlari, ularning kommunikativ va lingvomadaniy funksiyalari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu jihatdan mazkur tadqiqot media diskursda maqol va hikmatli iboralarning pragmatik vazifalari hamda ularning auditoriyaga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlarini aniqlashga qaratilgani bilan ilmiy ahamiyat kasb etadi.

OAV diskursi voqelikning muayyan aspektida namoyon bo‘lib, pragmatik, sotsiomadaniy, psixologik va boshqa omillar bilan uzviy uyg‘unlikda shakllanadi; u ijtimoiy-madaniy o‘zaro ta’sir jarayonida faol ishtirok etadi hamda kommunikantlarning ongiy mexanizmlarini aks ettiradi. Ushbu turdagi diskurs vositachilik xususiyatiga ega, ya’ni adresant (xabar yuboruvchi) bilan adresat (xabar qabul qiluvchi) o‘rtasida fazoviy yoki vaqt jihatidan ma’lum masofa mavjud bo‘ladi[13].

OAV diskursi ko‘p sohalarni o‘z ichiga olgan kategoriya sifatida faqat til va vizual belgilar majmuasi emas, balki sotsiomadaniy hodisa sifatida ham namoyon bo‘ladi. U ijtimoiy belgilar yoki ularning ma’lum semiosistemadagi birlashmasi sifatida qaraladi. Ushbu diskurs rejissor, operator,

[2] Фролов М. Е. Телевизионный дискурс информационно-аналитических программ: на материале программ криминально-правовой тематики НТВ: дис. ... канд. филол. наук. – Тверь, 2004. – 203 с.
[3] Харрис Р. Психология массовых коммуникаций. – Москва: ОЛМА-ПРЕСС, 2002. – 448 с.
[4] Тешабоева Д. А. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида таҳлили (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида): дис. ... д-ра филол. наук. – Тошкент, 2012. – 300 б.
[5] Абдусаидов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари: автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Тошкент, 2005. – 42 б.
[6] Азимова И. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепсиясининг психолингвистик тадқиқи: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 2008. – 24 б.
[7] Кадыров Н. Семантико-стилистический анализ в узбекском и русском языках в новейший период 1991–2001 гг. (на материале газет и устной речи): автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2001. – 22 с.
[8] Абдураимова Ш. К. Сўз ўзлаштириш назарияси ва ўзлаштирмаларнинг вақтли матбуот тилида ўзгариб бориши: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1995. – 24 б.
[9] Жуков В. П. Словарь русских пословиц и поговорок. – Москва: Русский язык, 2000. – 544 с.
[10] Пермяков Г. Л. Основы структурной паремиологии. – Москва: Наука, 1988. – 236 с.
[11] Алефиренко Н. Ф. Лингвокультурология: ценностно-смысловое пространство языка. – Москва: Флинта; Наука, 2010. – 288 с.
[12] Мокиенко В. М. Образы русской речи: историко-этимологические очерки фразеологии. – Санкт-Петербург: Филологический факультет СПбГУ, 2005. – 464 с.
[13] **Желтухина М. Р.** *Тропологическая суггестивность масс-медиального дискурса: о проблеме речевого воздействия тропов в языке СМИ*: монография. – Москва: Ин-т языкознания РАН; Волгоград: Изд-во ВФ МУПК, 2003. – 656 с.

muharrir, boshlovchi, jurnalist kabi ko‘plab ishtirokchilarning o‘ziga xos “san’at asari” sifatida shakllanib, axborotni yetkazadi, ta’sir ko‘rsatadi va shu orqali murakkab semiosistemani ya’ni verbal va averbial (vizual) vositalarning o‘zaro aloqadorligini ifodalovchi kompleks belgilar tizimini namoyon qiladi. Bu tizim esa aniq bir ijtimoiy makonga singib ketgan[14].

Tahlil va natijalar. Ingliz, o‘zbek va turk tillarida OAV diskursida paremiologik birliklar ya’ni maqollar va hikmatli iboralar keng qo‘llaniladi. Ular axborotni yanada ta’sirchan, esda qolarli, madaniy jihatdan tanish va mantiqan asosli qilishga xizmat qiladi.

Ingliz tilidagi OAV diskursida paremiologik birliklarning ishlatilish xususiyatlarini quyidagicha talqin qilish mumkin:

- maqollar sarlavhalarda, yangilik sharhlarida, tahririy maqolalarda va ayniqsa reklamalarda ishlatiladi;
- odatda, madaniy jihatdan tanish iboralar tanlanadi;
- axborotni qisqa va ravon yetkazish, kuchli ta’sir o‘tkazish;
- fikrni isbotlashda madaniy asos keltirish;
- matnga stilistik go‘zallik berish, esda qolarli qilish;
- madaniy qadriyatlarni aks ettirish, milliy yoki universal g‘oyalarni berish

Masalan,

“Don’t put all your eggs in one basket” - Investitsiyalarni tarqating.

“What goes around comes around” - Siyosiy yoki axloqiy javobgarlikni eslatish.

“You can’t please everyone”- Siyosiy yetakchilarning har bir qarori ijobiy baholanmasligini bildirish uchun ishlatiladi.

“The early bird catches the worm”- Aksiya va chegirmalarni ilgari surishda: tez harakat qilgan foyda qiladi.

“When it rains, it pours”- Biror hodisa ketma-ket salbiy oqibatlarga olib kelganini ifodalashda.

“Prevention is better than cure” - Tibbiy yoki ekologik mavzularda profilaktika zarurligini ta’kidlash.

“Actions speak louder than words” - Siyosiy tahlil, ijtimoiy muhokama

“Money doesn’t grow on trees”- Iqtisodiy tahlil, moliyaviy inqiroz haqida

“Honesty is the best policy”- Huquqiy yoki axloqiy mavzular

“Time is money”- Ish samaradorligi, ishbilarmonlik muhiti

Ingliz tilidagi OAV diskursida maqollar axborotning mazmunan boyligi, stilistik kuchi va madaniy anglanishi nuqtayi nazaridan muhim rol o‘ynaydi. Ular yordamida matn **yanada esda qolarli**, **ta’sirli** va **madaniy jihatdan asosli** bo‘ladi. Ayni voqeani muhokama qilish, muloqotni yo‘naltirish yoki axloqiy baho berish uchun ishlatiladi.

O‘zbek ommaviy axborot vositalarida – gazetalar, televideniye, radio, internet nashrlari va ijtimoiy tarmoqlarda **maqollar** keng qo‘llaniladi. Ular axborotni ta’sirchan, xalqchil va madaniy asosli yetkazishda muhim rol o‘ynaydi:

- milliy qadriyatlar va urf-odatlarga asoslangan maqollar ko‘p ishlatiladi;
- televizion yangiliklarda, maqolalarda va ayniqsa ijtimoiy tarmoq chiqishlarida keng tarqalgan;
- xabarni ixcham, lo‘nda va mazmunli yetkazish;
- matnga badiiylik, obrazlilik qo‘shish;
- axloqiy-nasihatomuz ma’no berish, ijtimoiy tarbiya;
- fikrni asoslash, ijtimoiy-huquqiy yoki siyosiy dalil keltirish;

Masalan,

“Yaxshilik qil, daryoga tashla, Baliq bilar, Baliq bilmasa, xoliq bilar” - Xayriya yoki ijtimoiy yordam mavzularida.

“Suv bir joyda turaversa, sasir” - Harakatga undovchi kontekstda.

[14] **Фролов М. Е.** Телевизионный дискурс информационно-аналитических программ: на материале программ криминально-правовой тематики НТВ: дис. … канд. филол. наук. – Тверь, 2004. – 203 с.

"Shamol bo'lmasa daraxtning uchi qimirlamaydi" – Hodisalarning sababini anglash, tahmin bildirish uchun ishlatiladi.

"Ekkan o'rar, qilgan topar" – Harakat uchun javobgarlikni eslatish.

"El sog'ligi- yurt boyligi" – Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish.

"Betashvish bosh qayda, Mehnatsiz osh qayda" – Profilaktik chora-tadbirlar zarurligini ta'kidlash.

"Qo'li singanning dardini qo'li singan biladi" – Hayotiy tajriba haqida.

"Tilini tiygan boshini qutqarar" – Siyosiy yoki ijtimoiy ehtiyotkorlik mavzularida

"Bugun bor - ertaga yo'q" – Iqtisodiy inqiroz, narx-navoning o'zgaruvchanligi haqida

"Yaxshi gap - jon ozig'i" – Tinchlik va birdamlik targ'ibotida

"Qo'shning tinch - sen tinch" – Ijtimoiy birdamlik, mahalla hayotida ishlatiladi

Etik me'yorlarni targ'ib qilish, madaniy ongni shakllantirish, davlat siyosatini asoslash kabi vazifalarni bajaradi. O'zbek tilidagi OAV diskursida maqollar **madaniy identitetning asosiy belgilaridan biri** bo'lib, ular orqali matnlar xalqchil, obrazli va ishonchli tus oladi. Ular orqali jurnalistlar yoki axborot uzatuvchilar ommaga ta'sir ko'rsatish, axloqiy yo'nalish berish va baho bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Turk OAVsida (gazeta, televizor, internet portallar, ijtimoiy tarmoqlar) maqollar xalq og'zaki ijodining ommaviy kommunikatsiyadagi faol elementi sifatida keng qo'llaniladi. Ular xabarni obrazli, ishonarli va hissiy ta'sir kuchiga ega shaklda yetkazadi. Maqollar rassomlar chiqishlari, gazeta sarlavhalari va siyosiy sharhlarda faol ishlatiladi. Ular orqali milliy birlik, ijtimoiy faollik va an'anaviy qadriyatlar ifodalanadi:

- ma'lumotni qisqa, ammo chuqur ma'no bilan yetkazish;
- odamlarni ogohlantirish yoki yo'l-yo'riq ko'rsatish;
- milliy va diniy qadriyatlarni targ'ib qilish;
- hodisani ijobiy yoki salbiy baholash;
- hayotiy haqiqatni tushuntirish, dolzarb muammoni yoritish;

Masalan,

"Çok gezen çok bilir" – Faol bo'lmagan insonning jamiyatga foydasi tegmasligi haqida.

"Sakla samanı, gelir zamanı" – Har bir narsaning qadri bor.

"Taş yerinde ağırdır" – O'z o'rnida qadrli bo'lgan shaxslarni ta'riflashda ishlatiladi.

"Ayağını yorganına göre uzat" – Mablag'larni tejab-tergab ishlatish zarurligi haqidagi kontekstlarda.

"Ne ekersen, onu biçersin" – Harakatning natijasi haqida tushuntirish.

"Erken kalktım işime, şeker kattım aşıma" – Sergak, faol hayot tarzini rag'batlantirish.

"Damlaya damlaya göl olur" – Jamg'arma, kichik harakatlarning qiymati haqida

"Bir elin nesi var, iki elin sesi var" – Jamiyatdagi hamkorlikni targ'ib qilishda

Turk tilidagi OAVdiskursida maqollar xalq tilining hayotiy donoligini ifodalaydi. Ular orqali jurnalistlar va axborot uzatuvchilar o'z fikrlarini xalq tilida, qisqa va kuchli ta'sir bilan yetkazadilar. Maqollar turk ommaviy axborot vositalarida madaniy xotirani saqlash, ijtimoiy tahlil va axloqiy tarbiya vositasi sifatida faol ishlatiladi. Siyosiy fikrni yumshatish, xalq fikrini jalb qilish, madaniy identifikatsiyani mustahkamlash.

Xulosa. Ingliz, o'zbek va turk tillarida OAVning turli janrlarida (yangilik, tahliliy maqola, reklama, ijtimoiy kampaniyalar, intervyu) maqollar ya'ni paremiologik birliklar faol tarzda qo'llaniladi. Ularning asosiy pragmatik-vazifasi maqollar o'quvchi yoki auditoriyani ishontirish, tasalli berish, ogohlantirish yoki madaniy qadriyatlarni targ'ib qilish kabi maqsadlarda ishlatiladi. Ular illokutsion aktlar sifatida ishlaydi ya'ni buyruq, maslahat, baho va tasdiq kabilar. Milliy-madaniy kod sifatida esa har bir tildagi maqollar o'z xalqining mentaliteti, tarixiy tajribasi va madaniy dunyoqarashi bilan bog'liq. Ular matnga identitet belgisi, xalqona hikmat, yoki madaniy ramz sifatida qo'shiladi. Kommunikativ vazifasi paremiologik birliklar axborotni oddiy, ravon va esda qolarli shaklda yetkazadi. Ular jurnalistlar va media mutaxassislari tomonidan uslubiy vosita sifatida ishlatiladi.

OAV diskursida paremiologik birliklar xalq donoligini aks ettiruvchi, axborotni emotsional va madaniy jihatdan boyituvchi kuchli vositadir. Ularning diskursda qo‘llanilishi nafaqat tilni bezaydi, balki o‘quvchi/tinglovchining axborotni qabul qilishini osonlashtiradi, madaniy o‘zlikni tiklaydi va fikr ta’sirini kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Желтухина М. Р. Тропологическая суггестивность масс-медиального дискурса: о проблеме речевого воздействия тропов в языке СМИ: монография. – Москва: Ин-т языкознания РАН; Волгоград: Изд-во ВФ МУПК, 2003. – 656 с.
2. Фролов М. Е. Телевизионный дискурс информационно-аналитических программ: на материале программ криминально-правовой тематики НТВ: дис. ... канд. филол. наук. – Тверь, 2004. – 203 с.
3. Харрис Р. Психология массовых коммуникаций. – Москва: ОЛМА-ПРЕСС, 2002. – 448 с.
4. Тешабоева Д. А. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида таҳлили (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида): дис. ... д-ра филол. наук. – Тошкент, 2012. – 300 б.
5. Абдусаидов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари: автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Тошкент, 2005. – 42 б.
6. Азимова И. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепсиясининг психолингвистик тадқиқи: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 2008. – 24 б.
7. Кадыров Н. Семантико-стилистический анализ в узбекском и русском языках в новейший период 1991–2001 гг. (на материале газет и устной речи): автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2001. – 22 с.
8. Абдураимова Ш. К. Сўз ўзлаштириш назарияси ва ўзлаштирмаларнинг вақтли матбуот тилида ўзгариб бориши: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1995. – 24 б.
9. Жуков В. П. Словарь русских пословиц и поговорок. – Москва: Русский язык, 2000. – 544 с.
10. Пермяков Г. Л. Основы структурной паремиологии. – Москва: Наука, 1988. – 236 с.
11. Алефиренко Н. Ф. Лингвокультурология: ценностно-смысловое пространство языка. – Москва: Флинта; Наука, 2010. – 288 с.
12. Мокиенко В. М. Образы русской речи: историко-этимологические очерки фразеологии. – Санкт-Петербург: Филологический факультет СПбГУ, 2005. – 464 с.
13. **Желтухина М. Р.** *Тропологическая суггестивность масс-медиального дискурса: о проблеме речевого воздействия тропов в языке СМИ*: монография. – Москва: Ин-т языкознания РАН; Волгоград: Изд-во ВФ МУПК, 2003. – 656 с.
14. **Фролов М. Е.** Телевизионный дискурс информационно-аналитических программ: на материале программ криминально-правовой тематики НТВ: дис. … канд. филол. наук. – Тверь, 2004. – 203 с.